

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)


2021- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2471,4 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **16,4 %** ga o'sishi ta'minlandi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari, ming so'm





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'zgarishi

(2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

| | <i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i> | <i>Xodimlar soni, kishi</i> | <i>Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar, mln. so'm</i> | <i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i> |
|--|--|---------------------------------|---|---|
| Viloyat bo'yicha - jami | 3 265 | 100364 | 2 976504,4 | 2 471,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Sanoat | 36 | 13 489 | 454 646,0 | 2 746,9 |
| Qurilish | 4 | 202 | 6 512,7 | 2 671,7 |
| Savdo | 10 | 988 | 36 482,5 | 2 946,5 |
| Tashish va saqlash | 7 | 1 143 | 26 563,6 | 1 935,7 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4 | 17 | 433,1 | 2 123,3 |
| Axborot va aloqa | 18 | 498 | 24 632,1 | 3 650,8 |
| Bank, sug'urta va vositachilik | 21 | 2 012 | 157 823,7 | 6 456,6 |
| Ta'lim | 1 334 | 47 357 | 1 276544,3 | 2 237,4 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 84 | 19 353 | 471 944,2 | 1 958,0 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 180 | 869 | 33 801,8 | 3 237,0 |
| Boshqa faoliyat turlari | 1 567 | 14 436 | 487 120,4 | 2 801,2 |

Ish haqi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Sanoat sohasida **36** ta korxonada **13 489** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **13,4 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar 454 646,0 mln so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **15,3 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 746,9** ming so'mni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan **17,6 %** ga o'sdi.






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod tumani – **211,4 %**, Paxtakor tumani - **140,0 %**, Zarbdor tumani - **105,6 %** va Jizzax shahri - **101,8 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Forish – **95,3 %**, Zomin - **84,1 %**, G'allaorol - **80,6 %** hamda Sharof Rashidov - **76,4 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

Qurilish sohasida **4** ta korxonada 202 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,2 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **6 512,7** mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **0,2 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 671,7** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **102,3 %** ga o'sdi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l - **110,4 %** viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkich kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Jizzax sh. - **98,3 %**, Zafarobod tumanida – **47,1 %** kuzatildi.





Savdo faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Savdo sohasida **10** ta korxonada **988** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,0 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **36 482,5** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **1,2 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 946,5** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **8,7 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumani – **113,3 %** to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Jizzax shahri – **97,8 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



Ta'lim sohasida **1 334** ta muassasada **47 357** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **47,2 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **1 276544,3** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **42,9 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 237,4** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **16,0 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – **128,7 %**, Baxmal -**109,3** va Zomin – **101,9 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Arnasoy - **99,8 %**, Zarbdor - **95,5 %**, Paxtakor - **90,5 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **84** ta muassasada **19 353** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **19,3 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **471 944,2** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **15,8 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 958,0** ming so'mni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan **9,5 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Mirzacho'l - **113,5 %**, Jizzax shahri - **112,1 %**, Arnasoy - **110,2 %** va Do'stlik - **109,9 %** tumanlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Hususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Baxmal **-97,4 %**, Sh.Rashidov **-89,8 %**, G'allaorol **-87,9 %** hamda Forish **-85,8 %**, tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha **21** ta muassasada **2 012** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **2,0 %**) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar **157 823,7** mln. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar ulushi **5,3 %**) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 456,6** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **12,9 %** ga o'sdi.




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - **101,1 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi ba'zi tumanlarida viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod - **90,1 %**, Do'stlik - **43,6 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur‘atlari, %.

(2021 - yil yanvar-dekabr; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


Jizzax viloyati bo‘yicha 2021 - yil yanvar -dekabr oylarida 2020 - yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur‘ati yashash va ovqatlanish sohasida **47,8 %**, axborot va aloqa sohasida **29,8 %**, San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasida - **27,5 %**, tashish va saqlash sohasida – **23,5 %** va sanoat sohasida - **17,6 %** kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2020 - yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori bo‘lgan ish haqqi, ming so‘mda



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida **3 201,4** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(129,5 %)**) ni tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod tumanida **2 429,3** ming so'mni (**98,3 %**), Baxmal tumanida **2 327,5** ming so'mni (**94,2 %**) va Zomin tumanida **2 248,2** ming so'mni (**91,0 %**) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi (foizda)





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari

(2021- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

| | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | O'sish sur'ati, %. |
|--------------------------|----------------------------|----------------------------|--------------------|
| Jizzax viloyatida | 2 123,7 | 2 471,4 | 116,4 |
| Jizzax shahri | 2 724,4 | 3 201,4 | 117,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Arnasoy | 1 831,5 | 2 052,1 | 112,0 |
| Baxmal | 1 939,6 | 2 327,5 | 120,0 |
| G'allaorol | 1 692,9 | 1 780,7 | 105,2 |
| Sharof Rashidov | 1 751,7 | 2 019,5 | 115,3 |
| Do'stlik | 1 965,6 | 2 143,1 | 109,0 |
| Zomin | 1 941,7 | 2 248,2 | 115,8 |
| Zarbdor | 1 815,5 | 2 174,9 | 119,8 |
| Zafarobod | 1 672,6 | 2 429,3 | 145,2 |
| Mirzacho'l | 1 807,5 | 2 095,7 | 115,9 |
| Paxtakor | 2 076,8 | 2 198,1 | 105,8 |
| Forish | 1 652,4 | 1 960,2 | 118,6 |
| Yangiobod | 1 754,4 | 2 129,0 | 121,3 |



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ma'lumot uchun: “O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020- yildagi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi joriy yilning 17 avgustdagi PQ-6279-sonli Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 822 000 so‘mni tashkil etadi.

***Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo‘limi.***

Тел:72-221-51-19



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI